



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



BOSHLANG'ICH TA'LIMDA INNOVATSION YONDASHUVLAR

Ilmiy rahbar: Shopulatova Nasiba Umirovna

*NIU ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrası dotsent v.b
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

Nasrullayeva Yulduz G'ofur qizi

*NIU ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrası
Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 2-kurs 3- guruh talabasi*

Annotatsiya. *Ushbu maqolada boshlang'ich ta'lim jarayonida innovatsion yondashuvlarning mazmuni, ahamiyati hamda ularni dars jarayoniga tatbiq etish usullari tahlil qilingan.*

Kalit so'zlar: *Ta'lim, innovatsiya, interfaol metodlar, boshlang'ich ta'lim, pedagogik texnologiya.*

ИННОВАЦИОННЫЕ ПОТХОДЫ В НАЧАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ

Абстрактний. *В данной статье обсуждаются инновационные подходы в начальном образовании. Был проведен анализ содержания и значимости подходов, а также методов их внедрения в учебный процесс.*

Ключевые слова: *Образование, инновации, интерактивные методы, начальное образование, педагогические технологии.*

INNOVATE APPROACHES IN PRIMARY EDUCATION

Abstract. *This article discusses innovate approaches in primary education. The content and importance, of the approaches, as well as the methods of implementing them in the teaching process, were analyzed.*

Keywords: *Education, innovatin, interactive methods, primary education, pedagogical technology.*

Boshlang'ich ta'lim ta'limning eng muhim qismidir. Ushbu davrda o'quvchilar eng sodda va zarur bilimlarni oladi. Hozirgi globallashuv sharoitida ta'lim tizimida innovatsin yondashuvlarni joriy etish muhim ahamiyatga ega. Chunki boshlang'ich ta'lim bosqichi o'quvchilarda bilim, ko'nikma va malakalarni shakillantirishning poydevori hisoblanadi. Shu sababli ushbu bosqichda zamonaviy, samarali va innovatsion yondashuvlardan foydalanish ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Innovatsion yondashuv-bu ta'lim jarayonida yangi g'oya, metod, texnologiya va vositalarini tadbiq etish orqali o'qitish samaradorligini oshirishga qaratilgan jarayondir. Boshlang'ich ta'limda innovatsin yondashuvlar o'quvchilarning yosh va psixologik





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



xususiyatlarini hisobga olgan holda tashkillashtiriladi. Hozirgi kunda boshlang'ich ta'lim jarayonida quyidagi innovatsion yondashuvlar keng qo'llanilmoqda:

- ✧ Interfaol metodlar (klaster, aqliy hujum, insert, Venn diagrammasi);
- ✧ O'yin texnologiyalari;
- ✧ Axborot -komunikatsiya texnologiyalari (multimediya, interaktiv doska);
- ✧ Kompetensiyaviy yondashuvlar;

Bu yondashuvlar o'quvchilarning faolligini oshiradi, mustaqil fikrlashini rivojlantiradi, bilimlarni chuqurroq o'zlashtirishga yordam beradi.

O'quvchilarni bilimlarini mustahkamlash va darsga qiziqtirish maqsadida quyidagi "Tirik bilimlar xaritasi" metodini qo'llab ko'ramiz:

"Tirik bilimlar xaritasi" metodida o'quvchi bilimni tayyor holatda emas, balki harakat, tasvir, refleksiya orqali "jonlantirib" o'zlashtiradi. Har bir dars yakunida sinfda o'sib boruvchi bilimlar xaritasi tuziladi.

Ushbu metodni qanday ketma-ketlikda amalga oshirish bosqichlari tushuntiriladi:

1-bosqich: "Bilimni uyg'otish"

O'qituvchi savol beradi yoki rasm ko'rsatadi.

Masalan: "Suv qayerdan keladi?"



O'quvchilar:

- Fikr aytadi
- Rasm chizadi
- Imo-ishora bilan ko'rsatadi

2-bosqich: "Tirik xarita yaratish"

O'qituvchi sinf doskasiga katta bo'sh xarita ilib qo'yadi.

O'quvchilar: Yangi bilimni stiker, rasm, belgi yoki so'z orqali joylashtiradi. Bunda har bir bola o'z hissasini qo'shadi

Masalan: "Tabiat" mavzusida:



- quyosh rasmi



-yomg'ir rasmi



- bulut rasmi



-darxt rasmi

3-bosqich: "jonlantirish"



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



O‘quvchilar xaritadaagi bilimni:

- Harakat bilan
- Kichik sahna
- Ovoz (taqlid) orqali ko‘rsatadi

Ushbu bosqichda tortinchoq bolalar ham ishtirok etadi.

4-bosqich: “Raqamli iz qoldirish”

Agar imkon bo‘lsa, xarita telefon orqali rasmga olinadi, o‘quvchilar bergan izohlar audio ovoz qilinadi.

5-bosqich: “Men nimani bildim?”

Bu metod yakunida har bir bola o‘rgangan bilimni aytadi:

- “Bugun men bilib oldim...”
- “Eng qiziq joyi...”

“Tirik bilimlar xaritasi” metodi boshlang‘ich sinfga juda mos. Bu metodda o‘quvchilarning mustaqilva jamoaviy fikirlashi rivojlanadi. Ushbu metod texnologiyasiz ham, texnologiya bilan ham ishlaydi. Bu metodda o‘quvchi bilimni eslab qoladi. Chunki u bilimni o‘zi yaratadi.

Xulosa qilib aytganda, dars unumli va samarali o‘tishi, ko‘p jihatdan o‘qituvchining mahorati va malakasiga bog‘liq hisoblanadi. Boshlang‘ich ta’limda innovatsion yondashuvlarni qo‘llash zamonaviy ta’lim talablaridan biridir. Yangi metodlar va zamonaviy texnologiyalar bilan dars tashkil etilsa, o‘quvchilarda mavzuni tushinish anglab olish yanada yaxshilanadi. Bilim olish bo‘lgan ishtiyoq yanada oshadi. Dars juda qiziqarli o‘tadi. Boshlang‘ich ta’limda innovatsion yondashuvli metodlar qo‘llansa dars muhiti noodatiy shaklda o‘tadi. Yoshlar kelajak quruvchisi, vatanimizning rivojlanishida eng katta ahamiyat kasb etuvchi shaxslardir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Azimov M. “Innovatsion ta’lim texnologiyalaridan foydalanish” o‘quv qo‘llanma.
2. Abdullayeva Q. “Boshlang‘ich ta’lim metodikasi” - Toshkent: O‘qituvchi, 2019.
3. Davlat ta’lim standartlari. Boshlang‘ich ta’lim uchun DTS. - Toshkent, 2021.
4. Jalliddinova D, Meliboyeva S. “Boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi, innovatsiya, integratsiyasi”.
5. Akaboyeva D, Akaboyeva A, Davirova N, ”Boshlang‘ich ta’limda innovatsion texnologiyalarni qo‘llash usullari”.